



2017 yilda Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **10945,9 mlrd.so'mni**, o'sish **7,9 %** ni tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2549,3 mlrd.so'mni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **23,3 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **23,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2017 yil viloyat korxonalarini tomonidan 10945,9 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,9 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 60,0 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning – 44,4 % ga, tog`-kon sanoati va ochiq konlarning ishlashi sanoatida ishlab chiqarish hajmining 10,9 % ga o'sishi hisoblanadi.

2017 yilning asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2017 yilda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4369,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 39,9 % ni tashkil etdi.

Tog'- kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'iyicha shag'al – 161,7 % ga, qum –104,1 % ga, oshgan. Shu bilan birga neft qazib olish hajmining 92,7% ga va tabiiy gaz – 93,8 % ga,chaqiq tosh qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 65,3 % ga, gaz kondensati – 98,3 % ga kamayganligini kuzatish mumkin.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2016 yilda ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Neft, ming tonna			
671,85		622,51	92,7 ↓
Tabiiy gaz, mln.kub.metr			
38590,66		36213,05	93,5 ↓
Gaz kondensati, ming tonna			
1442,28,0		1417,93	98,3 ↓
Shag`al, ming tonna			
317,6		513,5	161,7 ↑

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2017 yilda sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5254,9 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 48,0 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan plastmass quvurlar ishlab chiqarish 111,4 % ga, alkogol ichimliklar 106,9 % ga, ip-kalava – 2,2 martaga, oshganligini, palietilen – 98,7 % ga, paxta tolasini 99,7 % va o'simlik yog'i (tozalangan) 88,4% ishlab chiqarish hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayganligini kuzatish mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2016 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
3950,1	Plastmass quvurlar, tonna 	4399,1	111,4 ↑
138,1	Polietilen, ming tonna 	136,4	98,7 ↓
2612	Alkogol ichimliklar, ming. litr 	2791	106,9 ↑
5527	Ip-kalava, tonna 	12236,5	221,4 ↑

2016 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2017 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Paxta tolasi, tonna

145486



145037

99,7 ↓

O'simlik yog'i (tozalangan), tonna

29610,89



26163,5

88,4 ↓


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash.

2017 yil elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondititsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1269,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,6 % ni) tashkil

etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlarning – 111,3 % ga, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yuqotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning – 2,5 marta oshganligi kuzatildi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2549,3 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2016 yilning shu davriga nisbatan 91,2 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 23,3 % ni tashkil etdi.

2017 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yil iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 89,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 93,4 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 91,2 % tashkil etdi.


2017 yilda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Muborak (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 29,8 % ulushini), G'uzor (21,9 %) tumanlari, Qarshi shahri (14,1 %), Nishon (9,7 %) va Koson (4,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


2017 yilda shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Mirishkor (1,3%), Chiroqchi (1,7 %), Kasbi (1,7 %), Kitob (1,8 %) va Yakkabog' (1,9 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha Nishon tumani (2016 yilning shu davriga nisbatan)162,2 % ga, Qarshi tumani 127,6 %, Muborak tumani 110,2 % ga, G`uzor tumani 104,3 % ga, Yakkabog` tumani 104,2 % ga, Qamashi tumani 102,5 % ga sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi, va shu bilan bir qatorda Qarshi shahri 100,6 % ga, Kasbi tumani 98,5 % ga, Mirishkor tumani 98,6 %, Koson tumani 97,3 % ga, Chiroqchi tumani 92,6 % ga, Dehqonobod tumani 91,6 % ga, Shahrisabz tumani 89,4 % ga, Shahrisabz 88,1 % shaharlarida ishlab chiqarish hajmi kamaydi.

2017 yilda shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'atlari, % da



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida 39606,1 ming so'm, G'uzor tumanida 12370,7 ming so'm, Nishon tumanida 7397,3 ming so'm va Qarshi shahrida 5805,5 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 3510,0 ming so'm ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2017 yil hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 87,4 % ga kamaydi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 23,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (79,4 %), Yakkabog` tumanida (77,0 %), Shahrisabz shahari (69,1%), Qamashi (62,9 %), Shahrisabz tumani (59,8%), Qarshi shahari (59,1%) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulishi Muborak tumanida (1,8 %), G'uzor tumanida (2,5 %), Nishon tumanida (6,1 %) va Dehqonobod tumanida (18,7 %) kuzatildi.


2017 yilda hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.

Bugungi kunda viloyatda 2 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 449 tasi Qarshi shahrida, 313 tasi Kitob tumanida, 214 tasi Shaxrisabz shahrida, 194 tasi Yakkabog` tumanida, 194 tasi Qarshi tumanida, 125 tasi Chiroqchi tumanida, 114 tasi Shaxrisabz tumanida, 107 tasi Qamashi tumanida, 106 tasi Koson tumanida, 82 tasi Guzor tumanida, 58 tasi Kasbi tumani, 44 tasi Nishon tumanida, 43 tasi Muborak tumani, 40 tasi Dehqonobod tumanida va 37 tasi Mirishkor tumanlarida joylashgan.

2018 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yil viloyatda 408 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 94 ta Qarshi shahriga, 46 ta Kitob tumaniga, 30 tadan ortiq Shaxrisabz shahri, Yakkabog` va Chiroqchi tumanlarida, 20 tadan ortiq, Qarshi, Koson, Kasbi, Shaxrisabz va Qamashi tumanlarida, 10 tadan ortiq G'uzor,

Nishon, Mirishkor tumanlarida, shu bilan birga Dehqonobod tumanida 7 va Muborak tumanida 6 ta yangi sanoat korxonalari to'g'ri keladi.